

KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINING RIVOSHLANISHI

Xalilova Maftuna Baxtiyor qizi

O'zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
logopediya yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20382958>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq nuqsonlarining rivojlanish xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ko'rish analizatorining bolaning psixik va nutqiy rivojlanishidagi o'рни, vizual axborot yetishmovchiligining nutq shakllanishiga ta'siri hamda kompensator mexanizmlarning rivojlanishi yoritilgan. Shuningdek, ko'rish nuqsoniga ega bolalarda nutqning fonetik, leksik va grammatik tomonlarida kuzatiladigan buzilishlar, dislaliya, verbalizm va exolaliya kabi holatlar haqida ma'lumot berilgan. Maqolada ko'rish nuqsoni bilan bog'liq nutq buzilishlarining sabablari, ularning darajalari hamda tiflopedagogik yondashuv asosida olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ko'rish nuqsoni, nutq buzilishlari, verbalizm, exolaliya, dislaliya, nutq shakllanish darajalari, logopediya fonematik eshituv, nutq rivojlanishi, leksika, fonetika.

DEVELOPMENT OF SPEECH DISORDERS IN CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the developmental characteristics of speech disorders in children with visual impairments. It highlights the role of the visual analyzer in a child's psychological and speech development, the impact of a lack of visual information on speech formation, and the development of compensatory mechanisms.

Furthermore, it addresses impairments observed in the phonetic, lexical, and grammatical aspects of speech in visually impaired children, including conditions such as dyslalia, verbalism, and echolalia. The article explains the causes and severity levels of speech disorders related to visual impairment, as well as the significance of correctional-pedagogical work carried out based on a typhlopedagogical approach.

Keywords: visual impairment, speech disorders, verbalism, echolalia, dyslalia, levels of speech formation, logopedics, phonematic hearing, speech development, vocabulary, phonetics.

Ko'rish analizatori insonning ontogenetik rivojlanishida va fundamental hayotiy faoliyatida yetakchi sensor tizim hisoblanadi. Neyropsixologik ma'lumotlarga ko'ra, tashqi olam haqidagi axborotlarning qariyb 80-90 foizi aynan ko'rish sezgisi orqali qabul qilinadi. Ko'rish bolaning hayotiy faoliyatida va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'rish analizatori yordamida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tevarak-atrof haqidagi eng kuchli taassurotlar ko'z bilan idrok etiladi. Bola ko'rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, hajmi, harakati, uzoq- yaqinligi, fazodagi o'рни haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda kamida 2,2 milliarddan ortiq odamda ko'rish bilan bog'liq muammolar mavjud, ularning katta qismi bolalar va yoshlar hisobiga to'g'ri keladi. Shundan taxminan 1 milliard holatning oldini olish yoki davolash mumkin ekanligi aniqlangan. Bolalarda ko'rish nuqsonlari erta aniqlanmasa, bu ularning ta'lim olish imkoniyatlarini keskin cheklab qo'yadi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir qiladi.

Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Vizual axborotning yetishmasligi natijasida bola atrof-muhitni asosan eshitish, hid bilish va taktil sezgilar orqali idrok etadi. Bu esa kompensator mexanizmlarning rivojlanishiga olib keladi.

Ya'ni boshqa sezgi organlari vizual analizator o'rnini qisman bosadi. Bunday bolalarda eshitish xotirasi va taktil sezgirlik nisbatan yuqori rivojlangan bo'ladi. Nutq rivojlanishi ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarda ba'zan kechikishi mumkin, chunki bola vizual tasvirlar orqali yangi tushunchalarni o'zlashtira olmaydi. Biroq to'g'ri pedagogik yondashuv, muntazam muloqot va maxsus metodikalar yordamida nutq rivojlanishi samarali kechadi. Emotsional jihatdan esa bunday bolalarda ishonchsizlik, ijtimoiy chekinish yoki xavotir holatlari kuzatilishi mumkin, bu esa psixologik yordamni talab qiladi. Ko'rish nuqsoni bolaning harakat faoliyatiga ham ta'sir qiladi. Fazoviy orientatsiya, muvozanat va koordinatsiya qiyinlashadi. Bola atrofdagi obyektlarni ko'rish orqali emas, balki eshitish va sezish orqali aniqlashga majbur bo'ladi. Shu sababli maxsus mashqlar va reabilitatsiya dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus pedagogik yondashuv qo'llaniladi. Bu yo'nalish maxsus pedagogika va xususan tiflopedagogika orqali amalga oshiriladi. Tiflopedagogika ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning ilmiy asoslarini ishlab chiqadi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi ham bir qator xususiyatlarga ega. Bir qator ishlarda buni ko'rishimiz mumkin. Ko'rib chiqilgan barcha ishlarda (tovush talaffuzidagi buzilishlar va nutqning tizimli rivojlanmaganligi bo'yicha) ko'rsatilishicha, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq buzilishlari ko'radigan bolalarga nisbatan sezilarli darajada (bir yarim–ikki barobar) ko'proq uchraydi. Ushbu buzilishlarning sabablariga oid ma'lumotlar adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Mualliflarning katta qismi nutq buzilishlarini bevosita ko'rish nuqsoni bilan (ko'rish buzilishining darajasi va uning paydo bo'lish vaqti bilan) bog'laydi. Biroq adabiyotlarda bunday bolalarda nutq buzilishlari turli xil sabablar natijasida ham yuzaga kelishi mumkinligi haqida ham alohida ma'lumotlar mavjud: homila ichi rivojlanishidagi va markaziy asab tizimidagi buzilishlar, emotsional va somatik omillar ta'siri, atrof-muhit bilan bevosita aloqalarning cheklanishi, noqulay ijtimoiy muhit, motorika va koordinatsiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalar.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutq xususiyatlarini o'rgangan L.S. Volkova, O.I. Krinitskaya, I.V. Novichkova, L.I. Plaksina, L.I. Solntseva, V.A. Feoktistova va boshqa mualliflarning tadqiqotlari ko'rish nuqsoniga ega bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini aniqlagan. Shu bilan birga, nutq shakllanishining asosida sog'lom bolalarda kuzatiladigan umumiy qonuniyatlar yotadi. Biroq ko'rish nuqsoniga ega bolalarda tug'ma yoki erta orttirilgan ko'rish defekti nutqning rivojlanmaganligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Ko'p hollarda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning alohida komponentlari emas, balki uning barcha yoki ko'pchilik tarkibiy qismlari buzilgan bo'ladi. Nutq komponentlari turli darajada va turlicha nisbatda buzilishi mumkin, bu esa nutqning shakllanish darajasini va nutq nuqsonining strukturasi belgilaydi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq shakllanishining to'rt darajasi ajratiladi.

Birinchi darajada nutq buzilishlari eng kam ifodalangan bo'lib, faqat ayrim hollarda tovush talaffuzida kichik kamchiliklar kuzatiladi.

Ikkinchi darajada bolaning faol so'z boyligi cheklangan bo'ladi, so'z bilan predmet obrazini bog'lashda, umumlashiruvchi tushunchalarni qo'llashda, gap tuzishda va kengaytirilgan hikoyalar bayon qilishda qiyinchiliklar mavjud. Tovush talaffuzidagi buzilishlar bu darajada yanada aniqroq va xilma-xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, tovushlarni eshitish va talaffuz qilish differensiasiyasi yetarli shakllanmagan bo‘ladi. Fonematik tahlil shakllanmagan hisoblanadi.

Uchinchi darajada faol va passiv so‘z boyligining yetishmasligi kuzatiladi. So‘zlarning predmet bilan bog‘lanishi shakllanmagan, umumlashtiruvchi tushunchalar rivojlanmagan bo‘ladi. Bog‘lanishli nutq grammatik jihatdan noto‘g‘ri (agrammatik) bo‘lib, bola asosan bir yoki ikki so‘zli gaplardan foydalanadi. Tovush talaffuzida ko‘plab buzilishlar mavjud bo‘ladi.

Eshitish va talaffuz orqali tovushlarni farqlash yetarli darajada shakllanmagan. Fonematik tahlil va sintezni shakllantirish past darajada bo‘ladi.

To‘rtinchi, ya‘ni eng past darajada ekspressiv nutq juda cheklangan bo‘ladi, so‘z va predmet obrazi hamda umumlashtiruvchi tushunchalarni bog‘lashda sezilarli buzilishlar mavjud.

Bog‘lanishli nutq alohida so‘zlardan iborat bo‘ladi. Exolaliyalar (eshitilgan so‘z yoki iboralarni takrorlash) kuzatiladi. Nutqning grammatik tuzilishining sifat jihatlarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlarni bolalar bajara olmaydi, shuningdek, tovushlarni eshitish orqali farqlashga oid topshiriqlarni ham bajarmaydi. Fonematik tahlil va sintez jarayonlarining to‘liq shakllanmaganligi kuzatiladi. Shunday qilib, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘pincha nutqning funksional tizimi shakllanmagan bo‘ladi, so‘z boyligi cheklangan, nutqning mazmuniy tomoni buzilgan bo‘ladi. Ular uchun cheklangan so‘z boyligi fonida o‘ziga xos verbalizm va eholaliya xos belgilar hisoblanadi.

Murakkab ko‘rish-nutq nuqsoniga ega bo‘lgan kichik yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining xususiyatlari idrokiy (impressiv) va ifodaviy (ekspressiv) nutqning shakllanishida nisbatan bir xil darajada orqada qolish, taqlid faoliyatining sustligi, nutqiy passivlik, exolaliya, nutq reaksiyalarining kechikishi, nutqning nominativ va kommunikativ funksiyalarining buzilishi bilan namoyon bo‘ladi. L.I. Plaksina fikriga ko‘ra, nutqning erta rivojlanish davrlarida uning sekin shakllanishi ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning atrofdagi insonlar bilan faol o‘zaro aloqasining yetarli emasligi hamda ularning predmet-amaliy tajribasining cheklanganligi bilan bog‘liqdir. Shu sababli nutq shakllanishida o‘ziga xos xususiyatlar yuzaga keladi. Bu esa nutqning lug‘aviy-semantik tomonining buzilishida, ko‘plab so‘zlarning aniq hissiy xususiyatlari bilan formal tarzda qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Bunday so‘zlardan foydalanish bolalarda juda tor ma‘noda bo‘lib, so‘z faqat bolaga tanish bo‘lgan bitta predmet, uning belgisi bilan bog‘lanadi yoki aksincha, juda umumiy, konkret belgilar va xususiyatlardan ajralgan holda qo‘llaniladi.

R.E. Levina ta‘rifiga ko‘ra, nutq buzilishlarining o‘zi anomaliyaning yagona markazi hisoblanmaydi. Buning sababi shundaki, bunday bolalarda nutqning shakllanishi sog‘lom bolalarga qaraganda ancha murakkab sharoitlarda kechadi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘pincha kompleks (murakkab) og‘ishlar, fazoviy koordinatsiya buzilishlari, mayda motorikaning sust rivojlanganligi va bilish sohasidagi muammolar kuzatiladi. Ko‘rish nuqsonlari mavjud bo‘lgan sharoitda nutqiy muloqot faoliyati prinsipial jihatdan buzilmaydi, ya‘ni nutqni o‘zlashtirish va uning funksiyalari, shuningdek tuzilishi umuman olganda sog‘lom ko‘ruvchi bolalarnikiga o‘xshash tarzda kechadi. Biroq ko‘rishning buzilishi yoki yo‘qligi ushbu jarayonga ma‘lum darajada o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, rivojlanish dinamikasida, til vositalarini va ifodaviy harakatlarni to‘plash jarayonida, so‘z va obraz o‘rtasidagi munosabatning o‘ziga xosligida, lug‘at tarkibining mazmunida, nutq ko‘nikmalari va til sezgisining shakllanishida ma‘lum darajada orqada qolish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Nutqning fonetik tomonini o‘zlashtirish — ya‘ni ona tilini o‘rganishning boshlanishi — fonematik eshituvni shakllantirish va tovushlarni talaffuz qilish (artikulyatsiya) mexanizmini rivojlantirish orqali amalga oshadi va bu asosan taqlid

asosida kechadi. Agar fonematik eshituvning rivojlanishi va nutqiy eshituv tasavvurlarining shakllanishi eshitish idrokiga asoslangan holda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ham sog'lom bolalardagi kabi bir xil kechsa, nutq-harakat obrazlarining (tovushlarni talaffuz qilish artikulyatsiyasi) shakllanishi faqat eshitish emas, balki kinestetik va vizual idrokka ham bog'liqdir. Bu holat ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar atrofidagi odamlarning artikulyatsion harakatlarini vizual tarzda kuzatib, taqlid qilish imkoniyatining to'liq yoki qisman cheklanishi natijasidir.

Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqdagi asosiy nuqsonlardan biri — bu keng tarqalgan dislaliya (talaffuz buzilishlari) bo'lib, u maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda ko'p uchraydi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqiy muloqot imkoniyatlari (kattalar bilan bevosita muloqot, radioeshittirishlarni tinglash va boshqalar) cheklanmaganligi lug'at boyligining to'planishiga yordam beradi. Hatto o'rta maktab yoshida bu bolalarning lug'at boyligi me'yor darajasiga yetibgina qolmay, ba'zi tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra undan ham oshib ketishi mumkin. Biroq, boy lug'at boyligi cheklangan hissiy tajribaning kompensatsiyasi uchun muhim shart bo'lsa-da, u kamida minimal darajada aniq tasavvurlarga tayanishi kerak.

So'z va obraz o'rtasidagi bog'liqlik lug'at boyligining sifat jihatini belgilaydi. So'z ma'nosini o'zlashtirish jarayoni so'zning tovushi bilan predmetning sezgi orqali qabul qilingan xususiyatlarini bog'lashdan boshlanadi, umumlashgan ma'noni egallash esa sezgi ma'lumotlarini umumlashtirish asosida shakllanadi. Faqat shu asosda keyinchalik so'zlarning umumiy ma'nosini konkret vaziyatlardan mustaqil ravishda o'zlashtirish mumkin bo'ladi.

Demak, hissiy tajriba qanchalik boy bo'lsa, atrof-muhit qanchalik xilma-xil idrok etilsa, so'zlarning umumiy ma'nosini o'zlashtirish imkoniyati shunchalik keng va yuqori bo'ladi.

Ko'plab obyektlar va hodisalarni hamda ularning xususiyatlarini hissiy yo'l bilan bilish imkoniyatining cheklanganligi so'zlarni ular ifodalagan obyektlar bilan solishtirish imkoniyatini kamaytiradi va natijada so'z ma'nosini boyitishni cheklaydi. Shunga qaramay, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar odatda so'zlarni to'g'ri kontekstda qo'llasalar ham, chuqur tekshiruvda ularning bilimlari ko'pincha verbal xarakterga ega bo'lib, aniq tasavvurlarga asoslanmagan bo'ladi.

Bunda so'zlarning ma'nosi noto'g'ri toraygan yoki faqat ma'lum bir predmet bilan bog'langan holda qolib ketgan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ko'rish nuqsoniga ega bolalarda nutqning tizimli buzilishlari haqida gapirish mumkin, bunda nutq yaxlit funksional tizim sifatida buziladi va uning asosiy tarkibiy qismlari — fonetik, leksik va grammatik komponentlari birgalikda zarar ko'radi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu jarayon ko'rish analizatori faoliyatining cheklanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Vizual axborotning yetishmasligi bolaning atrof-muhitni idrok etishi, predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi hamda nutqning fonetik, leksik va grammatik tomonlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Natijada bunday bolalarda dislaliya, verbalizm, exolaliya, fonematik eshituvning yetarli shakllanmaganligi kabi nutq buzilishlari ko'proq uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.U. Qodirova va Z.X. Xusnuddinova. "Tiflopedagogika". Chirchiq-2023
2. P.M. Po'latova, D.B. Yakubjonova, Z.N. Mamarajabova, Sh.M. Amirsaidova, Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: "Fan va texnologiya", 2014

3. Мамаражובה Z.N. Maxsus pedagogika (umumiy kurs). – Toshkent, 2019.
4. Солнцева Л.И. Тифлопедагогика. – Москва, 2000
5. Дружинина, Л.А. Психолого-педагогическое сопровождение дошкольников с нарушениями зрения в условиях инклюзивного образования [Текст]: учебно-методич. пособие / Л.А. Дружинина, Л.Б. Осипова, Л.И. Плаксина. – Челябинск: Изд-во Юж.-Урал. гос. гуман. пед. ун-та, 2017. – 254 с